

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.10/2025.27.12.T.01.07 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TAXIROV DJONIBEK KOBILOVICH

**KO‘P MAQSADLI UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARINI
LOYIHALASHDA OPTIMAL PARVOZ-TEXNIK
KO‘RSATKICHLARINI TANLASH**

**05.02.08 – Uchish apparatlarini loyihalash, ularning konstruksiyasi, ishlab chiqarish,
ulardan foydalanish va yer usti majmualari**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktorI (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Taxirov Djonibek Kobilovich

Ко‘р maqsadli uchuvchisiz uchish apparatni loyihalashda optimal parvoz-
texnik ko‘rsatkichlarini tanlash..... 5

Тахиров Джонибек Кобирович

Выбор оптимальных летно-технических характеристик при
проектировании многоцелевого беспилотного летательного аппарата ... 21

Takhirov Djonibek Kobilovich

Selection of optimal flight performance and technical characteristics in the
design of a multi-purpose unmanned aerial vehicle..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.10/2025.27.12.T.01.07 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TAXIROV DJONIBEK KOBILOVICH

**KO'P MAQSADLI UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARINI
LOYIHALASHDA OPTIMAL PARVOZ-TEXNIK
KO'RSATKICHLARINI TANLASH**

**05.02.08 – Uchish apparatlarini loyihalash, ularning konstruksiyasi, ishlab chiqarish,
ulardan foydalanish va yer usti majmualari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T1608 ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdujabarov Nuriddin Anvarovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Parsiyev Saydiyaxad Solixodjayeich
texnika fanlari doktori, professor

Shamsiyev Rasul Zairovich
texnika fanlari bo'yich falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi PhD.10/2025.27.12.T.01.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'lhilar ko'chasi, 1 uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.ru.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'lhilar ko'chasi, 1 uy. Tel: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.Abdukayumov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

I.S.Maturazov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

X.X.Xusnutdinova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ko‘p maqsadli uchuvchisiz uchish apparatlaridan amaliy foydalanish ko‘lamini kengaytirish, parvoz vazifalarini yuqori aniqlikda bajarishni ta‘minlagan holda parvoz xavfsizligini oshirish, ekspluatatsiya samaradorligini ko‘tarish hamda tezkor va ishonchli monitoring yechimlarini joriy etish yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Jahon tajribasida uchuvchisiz uchish apparatlari hodisalari tahlillarida inson omili bilan bog‘liq sabablar sezilarli ulushni egallashi qayd etilgan (masalan, ayrim uchuvchisiz uchish apparatlari turlarida 21% dan 47% gacha)¹, shuningdek barqarorlik va ishonchlilikka qo‘yilayotgan talablar ortib borayotganini hisobga olsak, uchuvchisiz uchish apparatlarini loyihalashda aerodinamik, energetik va konstruktiv omillarni o‘zaro bog‘liqlikda hisobga oluvchi integratsiyalashgan matematik modellar va optimallashtirish algoritmlarini yaratish hamda loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish usullarini takomillashtirish zarurati yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, belgilangan cheklovlar doirasida optimal parvoz-texnik ko‘rsatkichlarni ta‘minlaydigan konseptual va parametrik loyihalash yondashuvlarini ishlab chiqish, konstruktsiyani hisoblash natijalari bilan ilmiy asoslash hamda material tanlovini mezonlar asosida amalga oshirishga qaratilgan yechimlarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Dunyo miqyosida uchuvchisiz uchish apparatlarini yaratish hamda ularning parvoz-texnik ko‘rsatkichlarini oshirishga qaratilgan izlanishlarda aerodinamik jarayonlarni matematik ifodalash, harakat tenglamalarini shakllantirish, barqarorlik va boshqaruvchanlik mezonlarini belgilash, shuningdek parametrlar fazosida cheklovlarni inobatga olgan holda optimallashtirish masalalarini yechishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda aerodinamik, energetik va konstruktiv parametrlarning o‘zaro bog‘liqligini nazariy jihatdan ochib berish, ko‘p mezonli optimallashtirish apparatini qo‘llash, funksional bog‘lanishlar va muvofiqlik shartlarini kiritgan holda integratsiyalashgan matematik modellarni shakllantirish hamda ularning adekvatligini baholashga qaratilgan tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, modellarning mosligini ta‘minlash, parametrlarni iterativ aniqlash, identifikatsiya va sintez masalalarini yagona yondashuv doirasida hal etish orqali parvoz holatlarini prognozlash aniqligini oshirish hamda qaror qabul qilish mezonlarini asosli belgilash dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda iqtisodiyotning turli sohalariga energiya va resurs tejankor texnologiyalarni kiritish, shu jumladan, uchuvchisiz uchish apparatlaridan qishloq xo‘jaligi, ekologik monitoring, geodeziya va aerofotosuratga olish, transport-logistika, favqulodda vaziyatlar hamda mudofaa yo‘nalishlarida samarali foydalanishni kengaytirish, uchuvchisiz uchish apparatlari platformalarini mahalliy sharoitga moslashtirish hamda ularni yaratish va ekspluatatsiya qilish jarayonlarini texnologik modernizatsiyalash borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib, bu borada muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi

¹ <https://archive.org/details/annalysisofhumca1094544637>

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion yechimlar asosida tarmoqlar samaradorligini oshirish hamda yuqori texnologiyali mahsulotlar va xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha ustuvor maqsadlar belgilab berilgan. Ushbu maqsadlarga erishishda, ko‘p maqsadli samolyot tipidagi uchuvchisiz uchish apparatlari uchun optimal parvoz-texnik ko‘rsatkichlarni ilmiy asosda tanlash, aerodinamik, energetik va konstruktiv parametrlarni o‘zaro bog‘liqlikda kompleks baholash imkonini beruvchi integratsiyalashgan model va algoritmlar majmuasini yaratish, loyihalashning konseptual va parametrik bosqichlarini avtomatlashtirish hamda qaror qabul qilish jarayonini tezkorlashtiruvchi dasturiy vositalar majmuasini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 12-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining havo hududida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 150-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi “Iqtisodiyot tarmoqlarida fuqaro aviatsiyasining UUA dan maqsadli va samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3639-sonli qarori², shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 658-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu oib borilgan tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlantirishning “I. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini mustahkamlash va innovatsiyalarni joriy etish”, “VII. Kosmik tadqiqotlar va transport infratuzilmasini rivojlantirish”, “VIII. Xavfsizlik, mudofaa va strategik resurslarni rivojlantirish” ustivor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Uchuvchisiz uchish apparatlarini loyihalash, ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish, konstruksiya va mustahkamligini hisoblash, aerodinamik va matematik hisoblash usullari va algoritmlarini ishlab chiqish, shuningdek, tadqiqotlar natijalariga asoslangan so‘nggi yillardagi ilmiy-texnikaviy adabiyotlarning tahlili, bu sohada sezilarli nazariy va amaliy natijalarga erishilganligini ko‘rsatadi. Uchuvchisiz uchish apparatlarini loyihalash, ishlab chiqarish va ularni iqtisodiyot tarmoqlarida qo‘llash bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar nashr qilingan, konsepsiyalar ishlab chiqilgan va har yilda amaliy vazifalarni hal qilishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Uchuvchisiz uchish apparatlarini loyihalash masalalarini o‘rganishda xorijiy olimlar, jumladan, Abdul Aabid, Selçuk Bayraktar, V.A. Komarov, A.A. Samoylovskiy, Axmet Yigit Arabul, N. Kumar, S. Saderla va boshqalar Wang B., Ruben Raphael D’Sa, Reinhardt D., Quan Q., Darwin Jimenez, Gumbatov D.A. hamda mamlakatimizda uchish apparatlarini loyihalash, mustahkamligini hisoblash va ishlab chiqarishga katta hissa qo‘shgan olimlar X.G. Sarimsakov, A.X. Yakubov, A.X. Sultonov,

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29- martdagi PQ-3639-son «Iqtisodiyot tarmoqlarida fuqaro aviatsiyasining UUA dan maqsadli va samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori

X.X. Xusnutdinova shuningdek, uchish apparatlarini ishlab chiqarish nazariyasiga Sh.F. Ganixanov, Usmanov K.B., Z.Z. Shamsiyev, T.A. Sagdiyev, R.X. Saydaxmedov, N.A. Abdujabarov va boshqalar o'zlarining muhim hissalarini qo'shgan.

Shu bilan birga, ko'p maqsadli uchuvchisiz uchish apparatning aerodinamik samaradorligini oshirish, konstruksiya elementlarida kechadigan aerodinamik va dinamik jarayonlar, turli parvoz rejimlarida yuklanishlar taqsimoti, shuningdek apparat konstruksiyasini og'irlik, mustahkamlik va energetik samaradorlik nuqtai nazaridan optimallashtirish muammolari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan muvofiqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining 561989-EPP-1-2015-1-UK-EPPKA2-CBHE-JP "Parvozlarning xavfsizligi va uchishga yaroqlilik" (2015-2018-yillardagi ERASMUS+) loyihasi doirasida bajarilgan. Shuningdek, Toshkent davlat transport universiteti "Aviatsiya injiniringi" kafedrasining universitet va "ChATZ" rahbariyati tomonidan 2021-2031-yillar uchun tasdiqlangan ilmiy-ta'lim kelishuv asosida hamkorlikda ishlab chiqilgan texnik topshiriq asosida dissertatsiya mavzusi shakllangan.

Tadqiqotning maqsadi ko'p maqsadli uchuvchisiz uchish apparatini loyihalashda optimal parvoz-texnik ko'rsatkichlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

uchuvchisiz uchish apparatini loyihalashda qo'llanilayotgan konseptual va parametrik metodlarni tizimli tahlil qilish hamda ularning ilmiy-texnik asoslarini asoslash;

parvoz-texnik ko'rsatkichlarga tayangan holda uchuvchisiz uchish apparatini loyihalash va baholash jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi integrallashgan matematik modelni ishlab chiqish;

aerodinamik optimallashtirish asosida uchuvchisiz uchish apparatining tashqi konfiguratsiyasini tanlash va avtomatlashtirilgan vizual 3D modelini shakllantirishda parametrlararo bog'liqligini tadqiq etish;

konstruksiyaning mustahkamlikka tahlili asosida uchuvchisiz uchish apparatining aerodinamik, konstruktiv va ishonchlilik ko'rsatkichlarini kompleks baholash yondashuvlarini takomillashtirish;

kompozit materiallarning fizik-mexanik xususiyatlarini modellashtirishga tayangan holda uchuvchisiz uchish apparatini konstruktiv talablariga mos material tanlash mezonlarini baholash usulini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti: uchuvchisiz uchish apparatini loyihalash jarayoni va ularning vazifalarga javob bera oladigan optimal parvoz-texnik ko'rsatkichlarini maqsadli shakllantirish va tanlash masalalari.

Tadqiqotning predmeti: Samolyot turiga mansub bo'lgan ko'p maqsadli uchuvchisiz uchish apparatini oldindan belgilangan parvoz-texnik ko'rsatkichlarga javob beradigan namunaviy konstruksiyalarini loyihalash usuli, modellar majmuasi hamda ularni amalga oshirish algoritmlari.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot jarayonida SolidWorks va ANSYS dasturlari, Octave matematik paketi, imitatsion va matematik modellashtirish, aerodinamik,

konstruktiv va mustahkamlik tahlil usullari, loyihalash parametrlarini optimallashtirish, shuningdek nazariy va analitik ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko'p maqsadli uchuvchisiz uchish apparatini loyihalashda konseptual va parametrik bosqichlarni yagona tizimda bog'lashga xizmat qiluvchi, aerodinamik, energetik va konstruktiv parametrlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni birgalikda hisobga olgan holda kompleks baholash va optimal variantni tanlash jarayonini avtomatlashtiruvchi konseptual- uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan;

uchuvchisiz uchish apparatining parvoz-texnik ko'rsatkichlari bo'yicha funksional uyg'unlikni ta'minlash uchun muvofiqlik shartlarini kiritish va moslikni iterativ aniqlash asosida asosiy ko'rsatkichlarni tanlash aniqligini oshiradigan integratsiyalashgan matematik model takomillashtirilgan;

aerodinamik optimallashtirish va sonli mustahkamlik tahlili natijalarini uyg'unlashtirib, ishonchlilik ko'rsatkichlarini inobatga olgan taqqoslash mezonlari asosida optimal loyihaviy yechimni tanlashni ta'minlovchi hisoblash algoritmlari majmuasi ishlab chiqilgan;

uchuvchisiz uchish apparati uchun parvoz-texnik ko'rsatkichlarini takomillashtirish natijasida shakllangan konstruktiv talablar asosida kompozit materiallarning fizik-mexanik xususiyatlarini modellashtirish orqali material tanlash mezonlarini baholash usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

iqtisodiyot tarmoqlarida ko'p maqsadli uchuvchisiz uchish apparatidan foydalanish talablarini shakllantirish uchun uning konstruktiv tuzilishi va asosiy parametrlarini takomillashtirishga qaratilgan, oqilona konstruktiv-kuch sxemasi hamda optimal parametrlarni tanlash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

VTOL tipidagi uchuvchisiz uchish apparati uchun SolidWorks va ANSYS muhitida parametrik 3D raqamli prototip, aerodinamik va mustahkamlikka hisoblash modellari ishlab chiqilgan bo'lib, ular asosida konstruktiv va aerodinamik parametrlarini baholash va optimal variantni tanlash imkonini beruvchi hisoblash modeli ishlab chiqilgan;

oldindan talab etilgan parvoz-texnik ko'rsatkichlarni ta'minlovchi matematik-algoritmik va dasturiy vositalar majmuasi yaratildi, EHMda sinovdan o'tkazilib, amaliyotda qo'llash imkoniyati hamda samaradorligi asoslangan;

buyurtmachi talablari doirasida taklif etilgan uchuvchisiz uchish apparatining konstruktiv birliklarini texnologik bo'lish va yig'ish jarayonlarini aks ettiruvchi animatsion (vizual) model ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi hisoblash va modellashtirish jarayonlarida zamonaviy usullardan foydalanilganligi, olingan natijalarning belgilangan texnik talablarga hamda me'yoriy hujjatlar ma'lumotlariga muvofiqligi, shuningdek tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko'p maqsadli uchuvchisiz uchish apparatini uzluksiz maqsadli

avtomatlashtirilgan loyihalash jarayonini ta'minlovchi konseptual-uslubiy yondashuv takomillashtirilganligi, aerodinamik–energetik–konstruktiv omillar o'zaro bog'liqligini hisobga oluvchi integratsiyalashgan matematik model ishlab chiqilganligi, shuningdek parvoz-texnik ko'rsatkichlarni kompleks baholash va optimal parametrlarni tanlashni ta'minlovchi algoritmik yechimlar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ko'p maqsadli, jumladan VTOL tipidagi uchuvchisiz uchish apparatini loyihalashni avtomatlashtirishga yo'naltirilgan dasturiy vositalar majmuasi ishlab chiqilganligi, CAD/CAE muhitida hisoblash-modellashtirish uchun amaliy modellar va parametrlashtirilgan loyihalash yechimlari yaratilganligi, shuningdek iqtisodiyot tarmoqlarida uchuvchisiz uchish apparatini qo'llash talablarini inobatga olgan holda konstruktiv yechimlar va optimal parametrlarni tanlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ko'p maqsadli uchuvchisiz uchish apparatini loyihalashda optimal parvoz-texnik ko'rsatkichlarni tanlash bo'yicha olingan natijalar asosida:

ko'p maqsadli uchuvchisiz uchish apparatini loyihalash bo'yicha uslubiyot, uning tuzilmasiga muvofiq ishlab chiqilgan dasturlar hamda tavsiyalar "Chirchiq aviatsiya ta'mirlash zavodi" DKda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 10/2367-son ma'lumotnomasi). Natijada uchuvchisiz uchish apparatini loyihalash va baholash jarayoniga matematik modellar hamda ko'rsatkichlar ta'sirini tahlil qilish usullari tatbiq etilib, uchish davomiyligini 14 daqiqagacha uzaytirish imkoniyati aniqlangan hamda energiya sarfini 5–7% gacha kamaytirish mumkinligi asoslangan.

yaratilgan loyiha yechimining iqtisodiy samaradorligi O'zbekiston Respublikasi Kadastr agentligi huzuridagi "Geoinnovatsiya markazi" DUK faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 15-oktyabrdagi 05/08-10572-son ma'lumotnomasi). Natijada parvoz-texnik ko'rsatkichlarni kompleks baholashga yo'naltirilgan integratsiyalashgan matematik model va optimal parametrlarni aniqlashni ta'minlovchi algoritmik yechimlar amaliyotga joriy etilib, loyihaviy qarorlarning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi texnik-iqtisodiy asoslar bilan tasdiqlangan.

belgilangan talablar asosida uslubiyot bo'yicha ishlab chiqilgan uchuvchisiz uchish apparati loyihasi Mudofaa sanoati agentligi faoliyatiga joriy etilgan (Mudofaa vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 10/2367-son hamda O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024-yil 4-dekabrdagi 4/E1631-son ma'lumotnomalari). Natijada aerodinamik tavsiflar, konstruktiv yechimlar va mustahkamlik bo'yicha bajarilgan tahlillar hamda ularning parvoz-texnik ko'rsatkichlarga ta'siri natijalariga tayangan holda loyiha yechimi amaliy tatbiq uchun baholanib, uchuvchisiz uchish apparatini loyihalash va ishlab chiqarishni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish uchun zarur loyiha sifatida e'tirof etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ta ilmiy-amaliy anjumanlar, shu jumladan 4 ta xorijiy (shundan 2 ta *Scopus* bazasiga kiruvchi to'plamda) va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqolalar, jumladan 3 ta respublika, 3 ta xorijiy jurnallarda va 2 ta boshqa ilmiy jurnallarda chop etilgan. Shuningdek 7 ta EHM dasturiga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 110 sahifa, 22 ta rasm va 28 ta jadvallardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy mavzusning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PQ-3639-son «Iqtisodiyot tarmoqlarida fuqaro aviatsiyasining uchuvchisiz uchish apparatidan maqsadli va samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq dolzarbligi eslatib o'tilgan. Jumladan, shu qarorda keltirilgan UUALarini ishlab chiqish, mahalliyashtirish, ularning texnik imkoniyatlarini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirish, shuningdek, mutaxassislar tayyorlash masalalari ustuvor vazifalar sifatida belgilanganligi tanlangan mavzuni dolzarbligi asoslangan. Mazkur qaror kesimida O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish ro'yxati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishinining “Ko'p maqsadli UUA ni iqtisodiyot tarmoqlarida dolzarbligi” nomlanuvchi 1-bobida ko'p maqsadli UUA ni iqtisodiyot tarmoqlarida dolzarbligiga tegishli masalalar atroflicha va tizimli ravishda tahlil etilgan va tadqiqotlar nazaridan chetda qolgan nazariy va amaliy muammolar va savollar yoritilgan. Shu muammolar va savollarga mansub o'z yechimni topmagan ilmiy va maliy masalalarga oid dolzarb bo'lgan quyidagi asosiy xulosalar qabul etilgan:

uchuvchisiz uchish apparatlarini qishloq xo'jaligi, qurilish, xavfsizlik, ekologiya va logistika sohalarida muhim texnologik vosita sifatida faol qo'llanilmoqda;

zamonaviy loyihalash usullari, algoritmlar va parametrik tahlillar – UUA ning funksional samaradorligini oshirishda asosiy rol o'ynaydi;


matematik modellashtirish orqali uchuvchisiz uchish apparatini parametrlarini aniqlash, noaniqliklarni oldindan baholash va optimal yechimlarni topish imkoniyati yaratiladi;

Ushbu tahlillar asosida ko'p maqsadli uchuvchisiz uchish apparatlarini loyihalashda texnik va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi ko'rsatkichlar aniqlanishi o'rganib chiqildi. Ushbu kesimdagi o'rganishlar asosida UUALarning konstruktiv-aerodinamik, funksional va iqtisodiy samaradorligini hisoblash uchun

ularga tegishli analitik tenglamalarni tizimga solish orqali amalga oshirish to'g'riligi aniqlandi.

Uchuvchisiz uchish apparatini loyihalash jarayonlarini, uslublarini va baholashni tahlil qilish orqali ularni oldinda talab etiladigan konstruktiv-aerodinamik va funksional ko'rsatkichlarga binon maqsadli loyihalash uchun uslubiyat yaratishga tegishli konseptual yondoshuv ishlab chiqildi (1-rasm).

Ko'p maqsadli uchuvchisiz uchish apparatini loyihalash kontseptsiyasi va matematik modellashtirish nomli 2-bobda belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq ko'pa UUAning konstruktiv va funksional ko'rsatkichlarini tahlilli tizimlashtirish; umumiy konstruktiv komponentlarini loyihalash va tanlash kontseptsiyasi; texnik-parvoz ko'rsatkichlarini hisoblash usuli; konstruktiv-kuch sxemasini tanlash va asoslash; maqsadli parvoz-texnika ko'rsatkichlariga muvofiq loyihalashning tuzilma-funksional modeli va parametrlari va konstruktiv yechimlarni baholash va tanlash bilan bog'liq loyihalash bosqichlarining tuzilma-funksional modellari ko'rib chiqilgan va tegishli ravishda uslub va modellari ishlab chiqilgan.



1-rasm. UUA tashqi shaklini aniqlash va parvoz-texnik ko'rsatkichlarini hisoblashning umumiy sxemasi

Ko'p maqsadli UUAning asosiy konstruktiv va funksional ko'rsatkichlari va

ularning hisoblash uchun quyidagi analitik formulalar yagona tizimga keltirilgan.

Og'irligi (massa), M , kg. UUAning to'liq og'irligi quyidagi elementlardan tashkil topadi:

$$M = M_k + M_{yuk} + M_q, \quad (1)$$

Bu yerda: M_k – UUA konstruksiyasining og'irligi; M_{yuk} – UUAning yuk ko'tarish qobiliyatiga mos keladigan yukning og'irligi; M_q – qo'shimcha elementlar (datchiklar, kameralar va hokazo) og'irligi.

UUA ko'taruvchi aerodinamik kuch, U ,

$$F = C_L \cdot \frac{1}{2} \rho V^2 S, \quad (2)$$

Bu yerda: C_L - ko'tarish koeffitsiyenti, ρ - havo zichligi, V - havo tezligi, S - qanot yuzasi.

Qarshilik kuchlari (D, \dots, N). Havo orqali harakatlanish vaqtida paydo bo'ladigan qarshilik kuchlari:

$$D = C_D \cdot \frac{1}{2} \rho V^2 S, \quad (3)$$

Bu yerda C_D - qarshilik koeffitsiyenti. Yuk ko'tarish qobiliyati (L): Yuk ko'tarish qobiliyatini hisoblash uchun:

$$L = W = M \cdot g, \quad (4)$$

Bu yerda: W - UUAning og'irligi (gravitatsiya ta'siridagi og'irlik), g - yerning gravitatsion tezlanishi (9.81 m/s^2).

Parvoz vaqti (T): UUAning parvoz vaqti:

$$T = \frac{E_{manba}}{R_{en.sarfi}}, \quad (5)$$

Bu yerda: E_{manba} - energiya manbai quvvati (akkumulyator yoki yonilg'i), $P_{energopot}$ - energiya sarflash quvvati.

Harakat tezligi (V), km/soat: UUAning harakat tezligini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$V = \sqrt{\frac{2W}{\rho S C_L}}, \quad (6)$$

Bu yerda: $W = m \cdot g$ – UUAning og'irligi (gravitatsiya ta'siridagi og'irligi), ρ – havo zichligi, S – qanot maydoni, C_L – ko'tarish kuchi koeffitsiyenti.

Ushbu tenglamalardan ko'rinib turibdiki, UUAning konstruktiv parametrlari va funksional ko'rsatkichlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularning har biri hisoblash ishlari jarayonida muhim mezon sifatida xizmat qiladi.

Umuman mazkur bobga tegishli vazifalar yechimlari 2-rasmda keltirilgan blok-sxemaga tayangan.

Dissertatsiyaning 3-bobida UUAning konstruktiv-aerodinamik tuzilishini tanlashning tahliliy metodikasi quyidagi harakatlar ketma-ketligini o'z ichiga oladi:

Maqsadli mezonlarni rasmiylashtirish → *Geometriyaning parametrik modeli* → *Har bir variant uchun aerodinamik ko'rsatkichlarni hisoblash* → *Barqarorlik va boshqaruvchanlikni baholash* → *Variantlarni saralash* → *Farazlarni hujjatlashtirish*

→ Optimallashtirishning yaxlit mezonlari → Usul cheklovlari va tekshirish bo'yicha tavsiyalar.

Har bir variant uchun aerodinamik parametrlarni hisoblash. Klassik formulalar qo'llaniladi (potensial aerodinamika + empirik tuzatmalar):

Ko'tarish kuchi:

$$L = \frac{1}{2} \rho V^2 S C_L, \quad (7)$$

Qarshilik:

$$D = \frac{1}{2} \rho V^2 S C_D, \quad C_D = C_{D0} + k C_L^2, \quad (8)$$

Aerodinamik sifat ko'rsatkichi koeffitsiyenti:

$$E = \frac{C_L}{C_D}, \quad (9)$$

Bu yerda C_L va C_D koeffitsiyentlari qanot profillari, geometriyasi va parvoz rejimlari asosida aniqlanadi;

C_{D0} va k parametrlari esa empirik baholashlar yoki ma'lumotnoma ma'lumotlariga ko'ra belgilanadi.

Barqarorlik va boshqariluvchanlikni baholash. Kichik hujum burchaklarida momentlarning chiziqli yaqinlashtirilishi qo'llaniladi. Statik bo'ylama barqarorlik shartiga misol:

$$M_\alpha = C_m^\alpha (x_{ac} - x_{cg}), \quad (10)$$

Bu yerda x_{ac} - aerodinamik markazning joylashuvi, x_{cg} - og'irlik markazining joylashuvi, C_m^α esa hujum burchagi bo'yicha moment koeffitsiyenti hisoblanadi. Ifodaning ishorasi va qiymati statik bo'ylama barqarorlikni belgilaydi.

Variantlarni saralash. Har bir variant uchun ko'rsatkichlar to'plami (E , L/W , kreyser tezligidagi ko'tarilish zaxirasi, barqarorlik, massa va o'lcham xususiyatlari) hisoblab chiqiladi. Variantlar ko'p mezonli yaxlit ko'rsatkich asosida darajalanadi (12-formulaga qarang).

Analitik modeldagi farazlar, cheklovlar va xatolik chegaralarini aniqlash. Analitik modelning soddalashtiruvchi taxminlari bilan bog'liq barcha farazlar, qo'llanish doiralari va kutilayotgan xatoliklar aniq-ravshan qayd etiladi.


Optimallashtirishning yaxlit mezonlari. i -variantni ko'p mezonli baholash uchun umumlashtirilgan integral ko'rsatkich F_i qo'llaniladi:

$$F_i = w_1 \frac{E_i}{E_{max}} + w_2 \frac{(L/W)_i}{(L/W)_{max}} + w_3 \frac{U_{payload,i}}{U_{payload,max}} - w_4 \frac{D_i}{D_{max}}, \quad (11)$$

bu yerda:

- w_1, w_2, w_3, w_4 - mezonlarning og'irligi $\sum_j w_j = 1$
- E_i - i variantning aerodinamik xususiyati;
- $(L/W)_i$ - i varianti uchun ko'tarish kuchining massaga nisbati (yoki xos ko'tarish qobiliyati);
- $U_{payload,i}$ - i -variantning foydali yuklama qiymati;
- D_i - i varianti uchun kreyser tezligidagi qarshilik;

- “max” indeksli miqdorlar - ko‘rib chiqilayotgan variantlar to‘plami bo‘yicha eng yuqori qiymat (normallashtiruvchi ko‘paytmalar). F_i qiymati eng yuqori bo‘lgan variant optimal deb hisoblanadi.



2-rasm. UUAni maqsadli parvoz-texnik ko‘rsatkichlariga muvofiq loyihalashning umumlashtirilgan algoritmining blok-sxemasi


2-rasmda UUAni maqsadli parvoz-texnik ko‘rsatkichlariga muvofiq loyihalashning umumlashtirilgan algoritmining blok-sxemasi. Ushbu algoritm

UUAning muvofiqlashtirish ko'rsatkichlarini hamda optimal parametrlarini aniqlash imkonini berdi.

$$F_{opt} = \max_i F_i, \quad (12)$$

Cheklovlar (taxminiy ifodalar):

$$x_{cg,min} \leq x_{cg} \leq x_{cg,max}, \quad P \geq P_{min}, \quad V_{stall} \leq V_{required}, \quad (13)$$



3-rasm. Ko'p maqsadli UUA ni optimal konstruktiv-aerodinamik shaklini loyihalash konseptual algoritmining blok-sxemasi

Amaliy formula va hisob-kitoblar ketma-ketligi.

1. Geometriya variantlari to'plamini belgilaymiz ($S, AR, \lambda, \bar{c}, x_{cg,rel}$ va boshqalar).

2. Berilgan V tezlik va ρ zichlik uchun, talab qilingan L/W nisbatiga mos keladigan ko'tarish kuchini hosil qilish uchun zarur bo'lgan C_L ni hisoblaymiz:

$$L = W = mg, \quad C_L = \frac{2W}{\rho V^2 S}, \quad (14)$$

C_L orqali C_D ni $C_D = C_{D0} + kC_L^2$ modeli yordamida hisoblaymiz va so'ngra D va E ni aniqlaymiz.

3. Chiziqli munosabatlar asosida statik barqarorlik va boshqaruvchanlikni baholaymiz.

4. Integral ko'rsatkich F_i ni hisoblab chiqamiz va variantlarni tartiblaymiz.

Yuqorida keltirilgan metodikaning konseptual algoritmi asosi 3-rasmda keltirilgan. Unga asosan quyidagilar bajariladi: texnik topshiriq talablariga javob beradigan apparat konfiguratsiyasini tanlash; og'irlik-taqsimot, tortish kuchi va energiya samaradorligi kabi parametrlarni hisoblab chiqish; CAD va CAE muhitlarida modellash va tahlilni ta'minlash; apparatni real shartlarda ishlatishga yaqinlashtirish uchun yagona strukturada qaror qabul qilishni ta'minlash. UUA loyihalashning umumiy konseptual algoritmi quyidagi takroriy bosqichlarni o'z ichiga oladi (3-rasm).

Optimal parametrlarni hisoblash uchun algoritm tuziladi. Boshlang'ich ma'lumotlar sifatida M, F, L, V, T, D lar qabul qilingan. Yuqorida keltirilgan formulalar yordamida UUAning parametrlari hisoblanadi.

3-rasmda keltirilgan ko'p maqsadli UUA ni optimal konstruktiv-aerodinamik shaklini loyihalash konseptual algoritmining blok-sxemasi UUA 3D modelini yaratish imkonini berdi. Yaratilgan UUAning 3D modeli yordamida har xil turdagi UUA lar modellarini loyihalash mumkin bo'ladi.

Birinchi yaqinlashishda UUAning uchish og'irligi va uchish massasini hisoblanadi. Ushbu loyihada uchuvchisiz uchish apparatining (UUA) foydali yuk massasi $m_{kn} = 3$ kg deb qabul qilindi. Hisobiy parvoz masofasi $L_p = 10$ km ni tashkil etadi, kreyser rejimdagi parvoz tezligi esa $V_{kr} = 36$ m/s deb olindi.

Shu boshlang'ich ma'lumotlardan foydalanilgan holda, loyihalashtirilayotgan UUAning birinchi taxminiy uchish massasi quyidagi munosabat asosida aniqlanadi:

$$m_0^e = \frac{m_{kn}}{1 - \sum_i \bar{m}_i} = \frac{3}{1 - 0,784} = 13,85 \text{ kg}, \quad (15)$$

bu yerda:

m_0^e – UUAning uchishga tayyor massasi;

m_{kn} – foydali yuk massasi;

\bar{m}_i – alohida konstruktiv tizim va agregatlarning ulush massalari.

Qanotning umumiy yuzasi quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$S_{kp} = \frac{m_0}{p_0} = \frac{13,85}{24} = 0,57 \text{ m}^2 \quad (16)$$

bu yerda:

– m_0 - UUAning umumiy uchish massasi;

– p_0 - parvoz jarayonida 1 m² qanot yuzasiga to‘g‘ri keladigan solishtirma aerodinamik yuk miqdori.


Prototip sifatida olingan UUA ning mavjud statistik ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, ularning asosida loyiha uchun zarur bo‘lgan parametrlar tanlab olindi.

Shunday qilib, loyihalashtirilayotgan uchuvchisiz uchish apparatining (UUA) qanoti uchun quyidagi asosiy geometrik ko‘rsatkichlarni aniqlash mumkin.

Jumladan, qanot qulochi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$L_{kp} = \sqrt{\lambda_{kp} \cdot S_{kp}} = \sqrt{11,9 \cdot 0,57} = 2,62 \text{ m} \quad (17)$$

Fyuzelyaj parametrlarini tanlash. Fyuzelyajdagi yuk bo‘limining zarur hajmi tashiladigan yukning og‘irligi va hajmiy xususiyatlariga muvofiq aniqlanadi, (4-rasm).



4-rasm. UUA ning fyuzelyaji

Parvoz jarayonida UUA ning qanotiga to‘g‘ri keladigan solishtirma yuk hamda tortish kuchi bilan ta‘minlanganlik darajasi aniqlanadi. Qanotning 1 m² yuzasiga to‘g‘ri keladigan solishtirma yuk, avvalo, qo‘nishga kirish tezligini ta‘minlash sharti asosida belgilanadi:

$$p_0^1 = \frac{c_{y,max. \text{ noc}} \cdot v_{3n}^2}{30,2 \cdot (1 - \bar{m}_{tr})} = \frac{2,57 \cdot 10^2}{30,2 \cdot (1 - 0,1085)} = 9,57 \text{ kГ/m}^2, \quad (18)$$

bu yerda:

– $S_{u,max,pos}$ qanotni mexanizatsiyalash tizimining turiga qarab statistik ma‘lumotlar asosida aniqlanadi;

– bir bosqichli orqa qanotchalar uchun $s_{u,max,pos} = 2,6 \cdot \cos(28^\circ) = 2,57$;

– $\bar{m}_{tr} = 0,2686$ – parvoz davomida sarflanadigan energiyaning nisbiy massasi;

– $V_{zp} = 36 \text{ km/soat} = 10 \text{ m/s}$ – hisobiy ko‘tarilish tezligi.

Bundan tashqari, qanot yuzasiga to‘g‘ri keladigan solishtirma yuk qiymati kreyser parvoz tezligini ta‘minlash sharti asosida aniqlanadi.

Bo‘sh og‘irligi 5,84 kg bo‘lgan VTOL turidagi UUA uchun parvozning har xil rejimlariga mos elektr dvigatellar tanlandi. Vertikal parvoz uchun T-Motor U12II KV80, gorizontol parvoz uchun esa T-Motor U8 Lite KV85 dvigatellari qo‘llanildi. Aparatning 10 km masofali parvozini ta‘minlash maqsadida quvvati 20000 mAs bo‘lgan, kuchlanishi tanlangan motorlar talablariga mos LiPo akkumulyator energiya manbai sifatida tanlab olindi.

UUAning geometrik parametrlarini qayta hisoblash. Olingan ikkinchi taxminiy massa qiymatlariga asoslanib, UUAning asosiy geometrik ko‘rsatkichlari qayta hisoblab chiqiladi. Ushbu bosqichda ikki trapesiyadan tashkil topgan birlashtirilgan qanotning geometrik parametrlarini aniqlash amalga oshiriladi.

1. Asosiy trapetsiya bo‘ylab qanot qulochi

$$l_{kp} = \sqrt{\lambda_{kp}^{o.T} \cdot S_{kp}^{o.T}} = \sqrt{11,9 \cdot 0,62} = 2,13 \text{ m}, \quad (19)$$

bu yerda:

$$S_{kp}^{o.T} = 1,10735 \cdot S_{kp} = 1,10735 \cdot 0,57 = 0,62 \text{ m}^2, \quad (20)$$

2. Qanotning umumiy yuzasi


$$S_{kp}^{\Sigma} = S_{kp}^{\phi} + S_{kk} = 0,57 + 0,011 = 0,581 \text{ m}^2, \quad (21)$$

UUAning massalar markazini hisoblash. Uchuvchisiz uchish apparatini (UUA) komponovkalash jarayonidagi eng muhim bosqichlardan biri – apparatning massalar markazini aniqlash va uni qanotning o‘rtacha aerodinamik xordasiga nisbatan optimal holatda joylashtirishdir. Bu yondashuv parvoz barqarorligini ta’minlash va boshqaruv samaradorligini oshirish uchun zarur hisoblanadi. Qanotning o‘rtacha aerodinamik xordasi qiymati $b_a = 0,31\text{m}$ deb qabul qilindi. UUAning massalar markazi SolidWorks dasturining CAE hamda CAD modullari yordamida aniqlangan natijalar 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Massalar markazini aniqlashdagi koordinata tizimi	Qabul qilingan texnik standart	
Massasi, kg	Hajmi, m ³	Sirt maydoni, m ²
$m_0 = 13,850 \sim g$	$V = 8\,348\,864,46 \text{ mm}^3$	$S = 5\,535\,378,50 \text{ mm}^2$

Shuningdek, ko‘p maqsadli uchuvchisiz uchish apparatini ishlab chiqarish uchun texnologik takliflar ishlab chiqilgan.



5-rasm. Fyuzelyaj va qanotning biriktirilishi.

UUA ishlab chiqarishning o‘ziga xosligi an’anaviy uchish apparatlariga nisbatan texnik, texnologik va tashkiliy jihatlarida farqli yondashuv talab qilinishida ifodalanadi. Samolyot tipidagi UUAlari tuzilishi bo‘yicha uchar qanot sxema asosida loyihalangan bo‘lsada (5-rasm), UUA bajaradigan vazifalar va unda qo‘llaniladigan materiallarda katta farqlarga ega. Qanotning yarmi uchun materiallar va homashyo bo‘yicha sarf-harajatlar 396 128 so‘mni tashkil etdi. Unda, ikkala qanotlar (o‘ng va chap) uchun 792 256 so‘mni tashkil etadi. UUA qanotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan materiallar va asbob-uskunalarga umumiy sarf **4 692 256 so‘mni** tashkil etadi. Ushbu qiymat loyihaning boshlang‘ich sarmoya xarajatlari hisobga olingan.

3. Loyihaning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari

A) Loyihaning sof joriy qiymati (NPV)

Loyihaning sof joriy qiymati quyidagi munosabat orqali aniqlandi:

$$NPV = \sum_{t=1}^T \frac{CF_t}{(1+r)^t} - I_0, \quad (22)$$

bu yerda

CF_t – t-yildagi sof naqd pul oqimi,

r – diskontlash stavkasi,

I_0 – boshlang'ich investitsiya miqdori.

Hisob-kitoblar natijasida:

$NPV = 5\,661,79 - 2\,566 = 3\,095,79$ ming so'm qiymat olindi. Demak,

$$NPV > 0, \quad (23)$$

bo'lgani uchun loyiha iqtisodiy jihatdan ma'qul deb baholanadi.

B) Loyihaning o'zini-o'zi qoplash muddati (PP)

O'zini-o'zi qoplash muddati quyidagi ifoda bilan aniqlandi:

$$PP = \frac{I_0}{CF_{yil}}, \quad (24)$$

bu yerda I_0 – boshlang'ich sarmoya xarajatlari,

CF_{yil} – loyihadan olinadigan yillik sof foyda.

Hisoblangan qiymatlar asosida:

$$PP = \frac{2\,446}{1\,689} \approx 1,45 \text{ yil}, \quad (25)$$

Shu bilan:

$$PP < 2 \text{ yil}, \quad (26)$$

sharti bajariladi va loyiha qisqa muddatda o'zini qoplaydi.

C) Loyihaning foydalilik indeksi (PI)

Foydalilik indeksi quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$PI = \frac{NPV}{I_0}, \quad (27)$$

Berilgan qiymatlar uchun:

$$PI = \frac{3\,095,79}{2\,566} \approx 1,21, \quad (28)$$

Shundan kelib chiqib:

$$PI > 1, \quad (29)$$

bo'lgani sababli loyiha investitsion jihatdan samarali hisoblanadi.

Yakuniy iqtisodiy xulosa. Quyidagi shartlarning bir vaqtning o'zida bajarilishi:

- $NPV > 0$ – loyiha sof iqtisodiy foyda keltirishini;
- $PP < 2$ yil – sarmoya qisqa muddatda o'zini qoplashini;
- $PI > 1$ – investitsiya foydaliligi yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Shu asosda, UUA ni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha taklif etilayotgan loyiha iqtisodiy jihatdan ma'qul, nisbatan kam xatarli va yuqori foydalilik salohiyatiga ega degan xulosa beriladi.

XULOSA

Ko'p maqsadli (jumladan VTOL tipidagi) uchuvchisiz uchish apparatini loyihalashda optimal parvoz-texnik ko'rsatkichlarni tanlash, kompleks baholash va amaliyotga joriy etish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalar taqdim etilgan:

1. Ko'p maqsadli uchuvchisiz uchish apparatlarini loyihalashda qo'llaniladigan konseptual va parametrik yondashuvlar tizimli tahlil qilinib, ularni yagona loyihalash zanjirida uyg'unlashtiruvchi konseptual-uslubiy asoslar ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Natijada loyihalash jarayonini izchil tashkil etish va optimal variantni tanlashga xizmat qiluvchi metodik yondashuv shakllantirilgan.
2. Aerodinamik, energetik va konstruktiv parametrlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni birgalikda hisobga oluvchi integratsiyalashgan matematik model ishlab chiqilgan hamda muvofiqlik shartlarini kiritish va moslikni iterativ aniqlash asosida takomillashtirilgan. Natijada parvoz-texnik ko'rsatkichlarni tanlash aniqligini oshirish va loyihaviy qarorlarni asoslash imkoniyati yaratilgan.
3. Aerodinamik optimallashtirish va sonli mustahkamlik tahlili natijalarini uyg'unlashtirgan, ishonchlilik ko'rsatkichlarini inobatga oluvchi taqqoslash mezonlari asosida optimal loyihaviy yechimni tanlashni ta'minlovchi hisoblash algoritmlari majmuasi ishlab chiqilgan. Natijada variantlarni kompleks solishtirish hamda tanlash jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyati ta'minlangan.
4. VTOL tipidagi uchuvchisiz uchish apparati uchun parametrik 3D raqamli prototip, aerodinamik tavsiflar hamda mustahkamlikka hisoblash modellarini qamrab oluvchi raqamli modellashtirish majmuasi ishlab chiqilgan. Natijada konstruktiv va aerodinamik parametrlarni baholash hamda optimal konfiguratsiyani tanlashni qo'llab-quvvatlovchi hisoblash modeli yaratilgan.
5. Oldindan belgilangan parvoz-texnik talablarni ta'minlovchi matematik-algoritmik va dasturiy vositalar majmuasi yaratilgan hamda EHMda sinovdan o'tkazilgan. Natijada loyihalash, baholash va optimallashtirish bosqichlarida hisoblash tajribalariga tayangan holda tezkor qaror qabul qilish imkoniyati asoslangan.
6. Parvoz-texnik ko'rsatkichlar bilan belgilangan konstruktiv talablar doirasida kompozit materiallarning fizik-mexanik xususiyatlarini modellashtirish orqali material tanlash mezonlarini baholash usuli ishlab chiqilgan. Natijada UUA konstruksiyasi uchun optimal material variantini tanlashning ilmiy asoslari shakllantirilgan.
7. Tadqiqotda ishlab chiqilgan uslubiyot, dasturiy vositalar va hisoblash yechimlari ishlab chiqarish-amaliy jarayonlarga tatbiq etilib, texnologik yechimlarni shakllantirish va iqtisodiy samaradorlikni baholash yo'nalishlarida sinovdan o'tkazilgan hamda tegishli tashkilotlar, jumladan "Chirchiq aviatsiya ta'mirlash zavodi" DK, "Geoinnovatsiya markazi" DUK va Mudofaa sanoati agentligi faoliyatida qo'llanilgan. Natijada taklif etilgan loyihaviy yechimlarning amaliy qo'llanishga yaroqliligi va joriy etish maqsadga muvofiqligi asoslangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.10/2025.27.12.T.01.07 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ТАХИРОВ ДЖОНИБЕК КОБИЛОВИЧ

**ВЫБОР ОПТИМАЛЬНЫХ ПАРАМЕТРОВ МНОГОЦЕЛЕВЫХ
БЕСПИЛОТНЫХ ЛЕТАТЕЛЬНЫХ АППАРАТОВ**

**05.02.08 – Проектирование летательных аппаратов, их конструкция,
производство, эксплуатация и наземные комплексы**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2026

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.4.PhD/T1608.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного Совета (www.tstu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Абдужабаров Нуриддин Анварович
кандидат технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Парсиев Сайдирахат Солиходжаевич
доктор технических наук, профессор

Шамсиев Расул Заирович

доктор философии по техническим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация:

Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2026 г. в _____ часов на заседании Научного совета PhD.10/2025.27.12.T.01.07 при Ташкентском государственном транспортном университете. (Адрес: 100167, г. Ташкент, ул. Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного транспортного университета (регистрационный номер - _____). (Адрес: 100167, Ташкент ул. Темирийулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-05-66).

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2026 года.
(протокол реестра № _____ от «_____» _____ 2026 года).

А.Абдукаюмов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

И.С.Матуразов
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней, PhD, доцент

Х.Х.Хуснутдинова
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней, к.т.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире расширение масштабов практического применения многоцелевых беспилотных летательных аппаратов, обеспечение выполнения полётных задач с высокой точностью при одновременном повышении безопасности полётов, повышение эксплуатационной эффективности, а также внедрение оперативных и надёжных решений мониторинга занимают одно из ведущих направлений. В мировой практике в анализах происшествий беспилотных летательных аппаратов отмечается, что причины, связанные с человеческим фактором, занимают значительную долю (например, для отдельных типов беспилотных летательных аппаратов – от 21% до 47%)¹. Кроме того, с учётом возрастающих требований к устойчивости и надёжности возникает необходимость разработки интегрированных математических моделей и алгоритмов оптимизации, учитывающих во взаимосвязи аэродинамические, энергетические и конструктивные факторы при проектировании беспилотных летательных аппаратов, а также совершенствования методов автоматизации проектных процессов. С этой точки зрения особое внимание уделяется разработке концептуальных и параметрических подходов к проектированию, обеспечивающих оптимальные лётно-технические характеристики в рамках установленных ограничений, их научному обоснованию на основе результатов расчёта конструкции, а также уделяется особое внимание развитию решений, направленных на осуществление выбора материала на основе установленных критериев.

В мировом масштабе в исследованиях, направленных на создание беспилотных летательных аппаратов и повышение их лётно-технических характеристик, проводятся научные работы по математическому описанию аэродинамических процессов, формированию уравнений движения, определению критериев устойчивости и управляемости, а также по решению задач оптимизации в пространстве параметров с учётом ограничений. В данном направлении приоритетными считаются исследования, направленные на теоретическое раскрытие взаимосвязи аэродинамических, энергетических и конструктивных параметров, применение аппарата многокритериальной оптимизации, формирование интегрированных математических моделей с введением функциональных зависимостей и условий согласования, а также оценку их адекватности. Вместе с тем обеспечение согласованности моделей, итерационное уточнение параметров, решение задач идентификации и синтеза в рамках единого подхода с целью повышения точности прогнозирования полётных режимов и обоснованного определения критериев принятия решений относится к числу актуальных задач.

¹ <https://archive.org/details/analysisofhumca1094544637>

В Республике осуществляются системные меры по внедрению энерго- и ресурсосберегающих технологий в различные отрасли экономики, в том числе по расширению эффективного использования беспилотных летательных аппаратов в сельском хозяйстве, экологическом мониторинге, геодезии и аэрофотосъёмке, транспортно-логистической сфере, при чрезвычайных ситуациях и в оборонном направлении, адаптации платформ беспилотных летательных аппаратов к местным условиям, а также по технологической модернизации процессов их создания и эксплуатации, в результате чего достигаются определённые результаты. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы определены приоритетные цели по внедрению цифровых технологий, повышению эффективности отраслей на основе инновационных решений, а также развитию высокотехнологичной продукции и услуг. В достижении данных целей одной из важных задач является научно обоснованный выбор оптимальных лётно-технических характеристик для многоцелевых беспилотных летательных аппаратов самолётного типа, создание комплекса интегрированных моделей и алгоритмов, обеспечивающих комплексную оценку аэродинамических, энергетических и конструктивных параметров во взаимосвязи, автоматизация концептуального и параметрического этапов проектирования, а также разработка комплекса программных средств, ускоряющих процесс принятия решений.

Настоящая диссертационная работа в определённой степени служит реализации задач, установленных в постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 150 от 12 мая 2016 года «О мерах по регулированию использования беспилотных летательных аппаратов в воздушном пространстве Республики Узбекистан», постановлении Президента Республики Узбекистан № ПҚ-3639 от 29 марта 2018 года «О мерах по целевому и эффективному использованию беспилотных летательных аппаратов гражданской авиации в отраслях экономики»², а также в постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 658 от 15 ноября 2022 года «О дополнительных мерах по регулированию использования беспилотных летательных аппаратов в Республике Узбекистан» и иных нормативно-правовых актах, регулирующих данную деятельность.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная научно-исследовательская работа выполнена в рамках приоритетных направлений развития науки и технологий Республики Узбекистан: “I. Укрепление научно-исследовательской деятельности и внедрение инноваций”, “VII. Космические исследования и развитие транспортной инфраструктуры”, а также “VIII. Развитие безопасности, обороны и стратегических ресурсов”.

Степень изученности проблемы. Анализ научно-технической литературы последних лет, основанный на результатах исследований в области проектирования беспилотных летательных аппаратов, разработки технологии производства, расчета конструкции и прочности, создания методов и

² Постановлении Президента Республики Узбекистан от 29 марта 2018 года ПП-3639 “О мерах по целевому и эффективному использованию БПЛА гражданской авиации в отраслях экономики”

